



INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE RELATED TO CLAY IN CRAFTSMANSHIP

Akhrorjon Usmanov

Fergana State University

Teacher of the Faculty of History

e-mail: a.usmonov1995@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Crafts, pottery, intangible cultural heritage, earthenware, potter, potter, tiler, tagzir, “bir pesh” and “ikki pesh”, patron saints, traditions, ceremonies, straw clay, daskir, dehqan bob, nimcha, ocho tandir and toy tandir.

Abstract: This article highlights the types of intangible cultural heritage associated with craftsmanship and tandoori making. It discusses the history of pottery, the intangible cultural heritage associated with clay, and the preservation and transformation processes of values and unique traditions passed down from generation to generation.

Received: 13.06.26

Accepted: 14.06.26

Published: 15.06.26

HUNARMANDCHILIKDA LOY BILAN BOG‘LIQ NOMODDIY MADANIY MEROS

Axrurjon Usmonov

Farg‘ona davlat universiteti

Tarix fakulteti o‘qituvchisi

e-mail: a.usmonov1995@gmail.com

Farg‘ona, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Hunarmandchilik, kulollik, nomoddiy madaniy meros, sopol buyumlar, kosapaz, ko‘zapaz, koshinchi, tagsir, “bir pesh” hamda “ikki pesh”, homiy pirlar, urf-odatlar, marosimlar, somonli loy, daskir, dehqon bob, nimcha, o‘choq tandir va to‘y tandir.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hunarmandchilik, tandirchilik bilan bog‘liq bo‘lgan nomoddiy madaniy meros turlari yoritib berilgan. Kulolchilik tarixi, loy bilan bog‘liq nomoddiy madaniy meros hamda avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qadriyatlar va o‘ziga xos an‘analarini asrab qolish,

transformatsion jarayonlari haqida fikr yuritiladi.

НЕМАТЕРИАЛЬНОЕ КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ, СВЯЗАННОЕ С ЛЕПКОЙ ИЗ ГЛИНЫ В РЕМЕСЛЕННОМ ПРОИЗВОДСТВЕ

Ахроржон Усманов

Ферганский государственный университет

Преподаватель исторического факультета

e-mail: a.usmonov1995@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ремесла, гончарное дело, нематериальное культурное наследие, фаянс, гончар, гончар, плиточник, тагзир, «бир пеш» и «икки пеш», святые покровители, традиции, обряды, соломенная глина, даскир, дехкан боб, нимча, очо тандыр и той тандыр.

Аннотация: В данной статье рассматриваются виды нематериального культурного наследия, связанные с ремеслами и изготовлением тандыра. Обсуждается история гончарного дела, нематериальное культурное наследие, связанное с глиной, а также процессы сохранения и преобразования ценностей и уникальных традиций, передаваемых из поколения в поколение.

Kirish. Farg‘ona vodiysiga xos arxeologik topilmalar ushbu hududda bronza davridayoq sopol buyumlar tayyorlash shakllanganligini ko‘rsatadi.[1]

Kulolchilikda loy qancha ko‘p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo‘ladi. Uzoq yillik mehnat jarayonlari natijasida kulollar ham ma‘lum bir idishlar ishlab chiqarishga ixtisoslashib borganlar. (masalan, kosapaz, ko‘zapaz, koshinchi, tandirchi va boshq.).

XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelganda vodiya kulolchilik yanada takomillashib, bir qator lokal xususiyatlarga ega bo‘lgan. Chunonchi, Qo‘qon uyezdidagi Rishton qishlog‘i O‘rta Osiyoning yirik kulolchilik markaziga aylanib, XX asr boshida Rishtonda 80 ta kulolchilik do‘koni faoliyat yuritgan.[2]

Mazkur davrda vodiya kulolchilik Namangan uyezdlaridagi qishloqlarda ham rivoj topgan. Namangan uyezidagi Chuqur-Ko‘chin va Sardoba volostlarida kosa hamda xumlar tayyorlangan. Vodiya Namangan uyezdining G‘urumsaroy, Sang, Chodak, Andijon uyezdining Asaka qishloqlarida kulolchilik mahsulotlari bozorga va buyurtmaga tayyorlangan. Kosonsoy va Shahand qishloqlarida oddiy sopol buyum tayyorlovchi mahallalar vujudga kelgan.

Vodiy kulolchiligida Rishton, G‘urumsaroy, Asaka, Sang qishloqlari kulolchilik buyumlari yasash usuli, shakli, naqshi va rangiga ko‘ra umumiy xarakterga, ayni vaqtda, ayrim o‘ziga xos

lokal jihatlarga ega bo'lgan. Rishton kulolchilik uslubida buyumga oqtosh va ishqordan rangsiz tagsir berilib, naqsh ustidan qirqbo'g'im o'simligidan tayyorlangan sir berilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Vodiydagi kulolchilik markazlari tabiiy xomashyo asosida ya'ni, Rishtondagi Tuproqxona ("Xoki surx"- "qizil tuproq"), G'urumsaroydagi Adir, Chodakdagi Xokdom, Sangdagi Kulol mahalla, Asakadagi Xonariqbo'yi tuproqxonasi ushbu markazlarni vujudga keltirgan.[3] Kulolchilikda turli mineral konlari ham muhim bo'lib, Rishtonga gilbo'ta Isfaradan, mag'l, jo'sha (qizil tuproq) Chorsudan, G'urumsaroyga oqtosh va ishqor tog'lik qirg'izlar, mis mahalliy konlardan, Qo'qondan keltirilgan.[4]

Vodiya tandirchilik rivoj topib, uning daskir, dehqon bob, nimcha, ikki yarim pesh, uch pesh, somsapaz, o'choq tandir va to'y tandir kabi turlari keng tarqalgan. Tandır Gulqishlog'ida tanasi katta, yelkador, og'zi kichik, Shahrixonda tanasi kichik, yelkasi katta, Oqyerda og'zi, yelkasi kichik, tanasi uzun, yelkadan ohista pastga tomon kengayib boruvchi shaklda tayyorlangan. Ushbu tandir shakllariga aholi ehtiyoji, mahalliy xom-ashyo xususiyati va hunarmandchilik an'analari ta'sir etgan.[5]

Aholisi zich, dehqonchilik rivojlangan Qo'qon shahri atrofidagi qishloqlarda kulolchilikning tandirchilik tarmog'i buyurtma shaklidagi ishlab chiqarishga o'tgan. Bunga vodiyning janubidagi Oqyer, g'arbidagi Gulqishloq tandirchiligi misol bo'ladi. Yirik qishloqlarni o'z tandirchilari bo'lgan. Farg'ona vodiysidagi bozorlardan uzoqda joylashgan, chekka qishloqlarda tandirchilik uy-hunarmandchiligi tarzida rivojlanib borgan. Jumladan, V.Nalivkin XIX asr oxirida Namangan uyezdi tarkibidagi Nanay, Ko'kyor, Qizilyozi va Oqtom kabi tog' oldi qishloqlarida tandirchilik uy-ro'zg'or sharoitida rivojlanganligi haqida ma'lumot beradi.[6]

Bunday uy-ro'zg'or tandirlari oila ehtiyojiga qarab, tandir hajmi belgilangan. Ularning eng kattasi "nimcha tandir" deb nomlanadi. Uy tandirlari "bir pesh" hamda "ikki pesh" tandirlardan iborat bo'ladi. Tandirning nimchadan ham kattarog'i "2,5 pesh" deb nomlanadi. Novvoylar ishlatadigan tandirlar esa

3 peshdan iborat bo'ladi. Bundan tashqari, somsa yopish uchun alohida "somsa tandir"lar yasaladi. Tandır loydan don, un va boshqa mahsulotlarni saqlash uchun xum ham tayyorlangan Xumga solingan un uzoq vaqt sifatini yo'qotmagan holda saqlangan.[7]

Natijalar va muhokama. Tandirlarni tayyorlash uchun maxsus tuproqlardan foydalanishgan. Hattoki, Farg'ona viloyati Rishton, Buvayda, O'zbekiston tumanlarida tayyorlangan tandirlar bir-biridan farq qilishini ko'rishimiz mumkin. Hunarmand ustalar tandir tayyorlashda Rishton hamda Buvayda tumanlarida qizil rangli tuproqdan foydalanishsa (Chustda ham shu rangdagi tuproqdan foydalanadi), O'zbekiston tumanida qora va ko'k (xalq tilida

kulrang)[8] tuproqlardan foydalanishini ko‘rishimiz mumkin. Abdullajon otani ma’lumotiga ko‘ra, qora hamda ko‘k rangdagi tuproq Qushqo‘noq qishlog‘ini to‘qqiz gektar joyidan olinishi, boshqa hududda tandir tayyorlash uchun soz tuproq chiqmasligini bilib olish mumkin. Shuningdek, bu rangdagi tuproqlardan teng ko‘rinishda ishlatilmasa tandir tayyorlash uchun sifatli loy chiqmas ekan. Abdullajon ota hamda ayoli Xodixon aya birgalikda qirq yildan beri tandir tayyorlashini, otani qizlari ham bemalol tandir tayyorlay olishini aytib o‘tishimiz mumkin. Abdullajon otani ma’lumotlariga ko‘ra “tandir tayyorlash bilan asosan, o‘zbek hamda tojik millatiga mansub aholi vakillari shug‘ullanishi, qirg‘iz millatiga mansub aholi vakillari bu soha bilan deyarli shug‘ullanmasligini” bilib olishimiz mumkin.

Tandirni yasash usullari ham turlicha bo‘lgan. Tandir loy tindirilib, u guvalaklarga bo‘lingan holda tepib pishiriladi. Bir xil diametrdagi uzun g‘o‘lasimon holga keltirilib, tekis va quruq joyga qo‘yilib, oyoq bilan yozib, taxtasimon holatga keltiriladi. Bu taxta “pesh” deb nomlanadi. Bir peshdan iborat tandirlarga yoyiladigan taxta tandirning katta-kichikligiga qarab enli qilib yoziladi. Ikki peshdan iborat tandirlarga dastlab taglik pesh to‘g‘ri holda yozilib taxta holiga keltiriladi. Bu “taxta pesh” qotgach, ko‘tarib tiklanganda tik turadigan holda qotib yetilgach, 3-4 kishi yordamida ko‘tarilib doira shakliga keltiriladi. Shundan keyin tandirchining asbob-uskunasi, ya’ni “tovoncha” va “g‘undaq” dan foydalanib pesh dastlab “hom tovoncha”, ya’ni tishli tovonchada urib chiqiladi. Bunda tandirni ichki tomoni g‘undak yordamida, tashqi tomoni esa tovoncha yordamida urib chiqiladi. Pesh 0,5-1 soat savomida qotgach tovoncha dog‘ tovoncha, ya’ni tishsiz silliq tovoncha bilan almashtirilib yana urib chiqiladi.[9]

Ustaning ma’lumot berishicha, tandirchi ustalarda “yetildi” degan ibora ko‘p ishlatiladi. Pesh tiklanganda o‘zining holatini tutib turadigan darajasiga “yetildi“ iborasi ishlatiladi. Buni ustalarning o‘zi aniqlay oladi, xolos. Bundan tashqari xom tovoncha bilan urilgandan so‘ng pesh birmuncha yumshaydi. Dog‘ini urish uchun esa yana ma’lum vaqt “taxta”ning qotishi talab qilinadi. Taxtani yetilishi uchun ketadigan vaqt havoning issiq-sovuqligiga, taxta yozilgan yerning qanchalik quruqligiga, quyosh nuri taxtaga tushgan yoki salqinda turganligiga bog‘liq bo‘ladi. Pesh ko‘tarilgach kamida 2 marta uriladi. “Urish”, ya’ni 2 marta urish bu – birinchisi “xomi”ni urish, ikkinchisi “dog‘i”ni terish deb nomlanadi. Ust pesh yarim oy shaklida taxta qilib yoziladi. Bunda hisobni shunday olish kerakki, tag pesh bilan ust pesh baravar yetilishi, bunda tag pesh dog‘i terilgach, tepasiga ustki peshni ko‘tarib mindirganda ko‘tara oladigan darajada yetilishi, ust pesh esa o‘z holatini tutib tura oladigan darajada yetilishin ta’minlash zarur bo‘ladi.

Bunda tandirning og‘zi bo‘lgan ustki peshning yuqori qismi yanada kichraytirilib dumaloq shaklga keltirilib, tandirga “qorin” va “yelka” beriladi. Tandirning ichkari qismi esa uni “urish”

jarayonida “g‘undak” yordamida silliq, tekis holatga keltiriladi. Undan keyin tandirning so‘ngi qismi, ya‘ni uni og‘zini tayyorlash qoladi. Bu jarayon “og‘zini tortish” deb nomlanadi. Bunda ust pesh “yetilishi” kerak bo‘ladi, ya‘ni og‘zi uchun uzatilgan loyni ko‘tara oladigan darajada qotishi kerak bo‘ladi. “Og‘zini tortish” shundan iboratki, unda tandirning katta-kichikligiga bog‘liq holda ma‘lum miqdordagi loy olinib tepib uzatilgach, tandirning og‘zi ho‘llanib unga kiydiriladi. So‘ng tekislab chiqilgach, lapkash (tandirning og‘zini tortishda foydalaniladigan kigiz yoki qalin matodan tayyorlangan moslama) yordamida tandirning og‘zi tortiladi. Bunda tandirchi lapkashning ustiga suv berib, qo‘li bilan lapkashni ustidan og‘izni qisgan holda aylanib unga shakl beradi. Og‘iz turli xil: tik og‘iz, yapaloq og‘iz, dumaloq og‘iz shaklida bo‘ladi. Uy tandirini ko‘proq tik og‘iz, “somsa”, “novvoy tandirlar”ning og‘zi ko‘pincha dumaloq shaklda bo‘ladi.[10] Shundan so‘ng tandir quritiladi.

Yuqorida qayd etib o‘tganimizdek tandirlar har xil quriladi. Vodiya asosan tandir uchun maxsus tandirxonalar quriladi. Tandır qurish uchun dastlab “taglik” yasaladi. Bunda “P” shaklidagi tosh terilib yoki biton quyilib 80-120 sm balandlikda g‘isht yoki guvala kesakdan foydalanib devor uriladi. Devorni ustiga yog‘och yoki temir to‘sinlar qo‘yilib ustiga tunika qoplanib, “P” shaklidagi devor yana 30-50 sm gacha ko‘tarilib qum bilan to‘ldiriladi. Qum yarim oy shaklida, ya‘ni tandirga mos ravishda qolipga o‘xshatib tandir unga yotqiziladi. Tandirning og‘zi “P” shaklining ochiq tomoniga qaratib yotqiziladi. So‘ng tandirning yon tomonlar tuproq bilan to‘ldirilib, lapata yoki ketmon sopi yordamida tirbandlanadi. Tandirning ochiq qolgan tepa qismi somonli loy bilan suvaladi. Bunga qadar tandirning ichki qismining 1/3 tuproq bilan to‘ldiriladi va o‘t yoqiladi.

Dala yozuv materiallarga asoslanib Farg‘ona vodiysi xalqlari nomoddiy madaniy merosining muhim atributlaridan bo‘lgan kulolchilik, tandirchilik bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalarni, urf-odatlarini, qadriyatlarini yoritib berishga harakat qildik. Quyida Farg‘ona vodiysida hunarmandchilik bilan bog‘liq homiy pirlar, urf-odatlar, marosimlar tizimi borasida fikr yuritamiz.

Turon o‘lkasida odatda hunar piri yirik diniy arbob yoki afsonaviy shaxs, Allohdan u yoki bu hunar mashg‘uloti bo‘yicha ilm olgan va buni odamlar orasida tarqatgan kishi hisoblangan. Jumladan, risolalarda keltirilishicha, nonvoy va oshpazlar Jabroil farishta, to‘quvchilar piri Momo Havo yoki Ibrohim payg‘ambarni, tikuvchilar Idris payg‘ambarni, temirchilar Dovud payg‘ambarni, juvozchilar esa Xo‘ja Ro‘shoyi otani, sartaroshlar Salmon Pok (Salmon al Forsiy)ni o‘zlariga pir deb bilganlar.

Hunarmandchilik masalalari bilan shug‘ullangan S.Davlatovanning tadqiqotlarga tayanib yozishicha, barcha kulollarning piri Said kulol, ya‘ni, Sham-siddin kulol bo‘lsa, Bahovuddin

Naqshbandiy esa o'z ustaxonasiga ega bo'lmagan, yollanib ishlaydigan usta – xalfa va shogirdlarning piri hisoblangan. Olov bilan ishlovchi zargar, temirchi, degrez, nonvoy va kulollarning bir qismi ham Hazrati Dovudni o'zlariga pir deb hisoblaganlar. Igna bilan ish tikuvchi zardo'z va etikdo'zlarning piri Bobo Porado'z bo'lgan. Bundan tashqari, zardo'zlar eng birinchi usta zardo'z, g'oyibona homiy pir Hazrati Yusufni o'zlarining piri deb bilganlar.[11]

Bundan tashqari, uy-joy quruvchilarning ham pirlari bo'lib, uying to'sini yoki yog'ochini ko'tarishda ustalarga “keskilik haqi” berilgan. Unga ko'ra, usta o'zi ishlab topgan pulidan ushbu hunar asoschisining haqiga duoi fotiha qilib turishi shart bo'lgan. Ustachilikning piri Ibrohim Halilulloh bo'lib, u xalq orasida imorat qurgan kishi sifatida ulug'langan. Nuh payg'ambarni esa eng birinchi bo'lib yog'ochdan qayiq yasaganligi uchun yog'ochga ishlov berish hunarmandchiligi piri sifatida tan olingan.[12]

Bu homiy pirlar haqidagi qarashlar, ular bilan bog'liq rivoyatlar, marosimlar, urf-odatlar majmuyi bugungi kunga qadar Farg'ona vodiysi aholisi madaniy an'analari sifatida ma'lum darajada saqlanib qolgan.

Farg'ona vodiysida ipakchilik va u bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlar ham keng tarqalgan. Vodiy pillakashlari tarmoq homiy piri deb islom dinida maqaddas avliyo sifatida keltirib o'tilgan “Hazrati-Ayub” timsolini tan oladi. Shuningdek, ipakdo'z hunarmandlar Xasti Shishi Nabi va Burkuzar Masli Vali kabi homiy-pir timsoliga e'tiqod qilgan.[13] Tarmoq erkaklar qo'lida bo'lgani uchun soha homiy-kulti ham erkak homiy-pir timsolida vujudga kelgan. Bu jihat vodiydagi bunday e'tiqodiy qarashlar ham qadimiy ajdodlar ruhiga topinish elementlari bilan bog'liqligini tasdiqlaydi.

Vodiydagi qirg'izlarda to'qimachilik homiy-piri deb “Umay ona”ni tan olgan.[14] Qirg'iz to'qimachilari ish boshlashda “Menim kolum emas, Umay onanin kolu” deb iltijo qilgan.[15] Umay ona timsoli boshqa Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan o'zbeklarda Ambar ona, tojiklarda Momoxo, qozoqlarda “May ona” shaklida uchraydi.[16]

Xulosa. Umuman olganda dunyodagi turli ilmiy markazlarda hunarmandchilikning madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga oid tadqiqotlar, xalqaro loyihalar amalga oshirib kelinmoqda. Farg'ona vodiysi aholisining hunarmandchilik bilan bog'liq bilim, ko'nikma, urf-odat va marosimlari hozirgi kunga qadar ma'lum darajada saqlanib kelingan. Hunarmandchilik bilan bog'liq bilim, ko'nikmalar xalq orasida ham ko'p uchrashi, ushbu sohada ustoz-shogird an'analari bugungi kungacha yaxshi saqlanib qolinganligi nomoddiy madaniy merosimizni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] Горбунова Н.Г. Итоги археологических памятников Ферганской области. (К истории культуры Ферганы). // Советская археология, 1973. – №3. – С. 16; О‘sha muallif. Раскопки курганов в Ферганской области. Успехи Среднеазиатской археологии. – Вып.№3. – Ленинград: Наука, 1975 г. – С. 29. Сприщевский В. Археологические раскопки в районе Чуста // Правда Востока, 1959. – № 268. 21 ноябрь; Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. – М.: АН СССР, 1962. – С. 84.

[2] Пещерева Е.М. Гончарное производство Средней Азии... – С. 202; Развадовский В.Н. Опыт исследования кустарных промыслов в Туркестанском крае... – С. 27-44.

[3] Эсонов З. XIX аср охири – XX аср бошларида Фарғона водийси кишлок аҳолисининг хунармандчилиги: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. ... қўлёзмаси. – Тошкент, 2024. – Б. 26.

[4] Пещерева Е.М. Гончарное производство Средней Азии (Этнографические очерки) // Труды Института этнографии им. Н.Н.Миклухо-Маклая. Т. XLII. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 215–216.

[5] Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton tumani Oq yer qishlog‘i. 2024–yil.

[6]. Наливкин В.П., Наливкина М.В. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганской долины. – Казань, 1886. – С. 119.

[7]. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton, Buvayda, O‘zbekiston tumanlari, Namangan viloyati Chust tumani. 2024–2025-yillar.

[8]. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton, Buvayda, O‘zbekiston tumanlari, Namangan viloyati Chust tumani 2024–2025-yillar.

[9]. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton, Buvayda, O‘zbekiston tumanlari, Namangan viloyati Chust tumani. Andijon viloyati Shaxrixon tumani. 2024–2025-yillar.

[10]. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Rishton, Buvayda, O‘zbekiston, Qo‘sh tepa tumanlari, Namangan viloyati Chust tumani. 2024–2025-yillar.

[11]. Давлатова С.Т. Ўзбек анъанавий хунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (Ўзбекистоннинг жанубий худудлари мисолида): Тарих фанлари доктори (DSc) дисс. ... қўлёзмаси. – Тошкент, 2018. – Б. 307.

[12]. Аширов А.А. Ўзбек халқининг тураp жойлар билан боғлиқ урф-одатларида диний эътиқодлар симбиози // O‘zbekiston tarixi, 2007. – № 1. – Б. 59–60.

[13]. Курбангалиева Т.С. Быт и культура рабочих узбеков шелковой промышленности города Ферганы (1945–1965 гг.): Канд. дисс. ... автореф. – Ташкент, 1968. – С. 58.

[14]. Dala yozuvlari. Axborotchilar Shopo‘latova Orzuxon aya. Andijon viloyati Shahrixon tumani Ahmadbek qishlog‘ida 1934-yili tug‘ilgan, millati o‘zbek, hunarmand, To‘xtaboyeva Marhamatoy. Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani Haydarobod qishlog‘ida 1952-yili tug‘ilgan, millati o‘zbek, hunarmand.

[15]. Dala yozuvlari. Axborotchilar Cho‘lpon momo Qambarova. Farg‘ona viloyati Rishton tumani Yoyilma qishlog‘i 1939-yili tug‘ilgan, millati qirg‘iz., Oygul momo Jonqo‘shoqova. Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani Bo‘ston qishlog‘ida 1947-yilda tug‘ilgan. millati qirg‘iz.

[16]. Снесаров Г.П. Реликты домусульманских верований и образов у узбеков Хоразма. – Москва: Наука, 1969. – С. 240; Аширов А.А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент, 2017. – Б. 85.